

VOLIBOL TO'PI VA SPORT MAYDONI*Normaxmatov Ilxom Zayniddinovich**Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston.*

Anotatsiya: Voleybol ([inglizcha](#): *volleyball* volley – „urib qaytarmoq“ va ball – „to'p“) [to'pli sport](#) o'yini bo'lib, har biri 6 kishidan iborat ikki jamoa bilan o'rtasidan to'r tortilgan maydonchada o'ynaladi^[1]. O'rtasidan to'r bilan (erkaklar musobaqasi uchun 2,43 m va ayollar musobaqasi uchun 2.24 m balandlikda) bo'lingan 9x18 m li maydonchada o'ynaladi. Voleybol to'rining katakchalari soni 1 000 ta (enida 100 ta va bo'yida 10 ta) bo'lib, bitta katagining to'rt tomoni 10 sm dan bo'ladi. Bir jamoa 6 kishidan iborat bo'lib, 2 jamoa o'ynaydi. O'yinchilar to'pni qo'l bilan urib, raqib maydoniga tushirishga harakat qiladilar. Koptokni uch urishda raqiblar tomoniga o'tkazish lozim. Musobaqa 3 yoki 5 partiya o'ynaladi. Voleybol [AQShda](#) paydo bo'lgan (1895). Xalqaro federatsiya (FIVB; 1947-yil asos solingan) ga 180 dan ortiq mamlakat a'zo. 1964-yildan [Olimpiya o'yinlari](#) dasturlariga kiritilgan, 1949-yildan jahon birinchiliklari o'tkaziladi.

Kalit so'zlar: Voleybol“ inglizcha so'z bo'lib, Maydoncha chegaralari 7,6 x 15,1 m, Yaponiya, Kitay, Filippinda, 1914-yil – Angliya, 1917-yil – Fransiya.

Kirish: Voleybol [O'zbekistonda](#) 1920-yildan o'ynaladi. O'zbekiston Respublikasi 1991-yil Xalqaro voleybol federatsiyasiga, 1992-yil Osiyo voleybol konfederatsiyasiga a'zo bo'lib kirdi. O'zbekistonda bu sport turi bilan 700 mingdan ortiq kishi muntazam shug'ullanadi. U maktablarda ommaviy tus olgan, jismoniy tarbiya bo'yicha dasturning ajralmas qismi hisoblanadi.^[2]

Voleybol 1894-yilda Amerika qo'shma shtatlarining Massachusets shtatidagi Xoliok shahrida yosh xristianlar ittifoqini jismoniy tarbiya bo'yicha rahbari pastor Vilyam Morgan tomonidan yaratilgan. U voleybol o'yinini oddiy, ko'p mablag' sarflamasdan tashkil etishni ko'zda tutib yangi o'yinning qoidalarini ishlab chiqdi. O'yin nomini avvaliga "mintonett" deb nomladi.

1896-yilda Springfield shahridagi kollej direktori doktor Alfred Xalsted bu o'yinga „voleybol“ deb nom berdi. „Voleybol“ inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida „parvoz qiluvchi to'p“ degan ma'noni bildiradi. 1897-yilda tadbiiq etilgan ba'zi bir o'yin qoidalari quyidagicha edi:

1. Maydoncha chegaralari 7,6 x 15,1 m
2. To'rning o'lchamlari 0,65 x 8,2 m, balandligi 198 sm
3. To'pning vazni 340 g, aylanasi 63,5 – 68,5 sm
4. O'yinchilarning soni chegaralanmaydi va hokazo.

1895—1920-yillar voleybol o'yini rivojlanishining birinchi bosqichi bo'lib hisoblanadi. O'yinning boshqa davlatlarda vujudga kelishi va rivojlanishi quyidagicha: 1900-yil – Kanada, 1908-yil – Kuba, 1909-yil – Puerto-riko, 1910-yil – Peru, 1917-yil – Braziliya, Urugvay, Meksika, Osiyoda 1900—1913-yillar – Yaponiya, Kitay, Filippinda, 1914-yil – Angliya, 1917-yil – Fransiya.

Voleybol o'yinining sobiq ittifoqda vujudga kelishi va rivojlanish tarixi

Voleybol sobiq ittifoqda 1920—1921-yillarda o'rta Volga (Qozon, Nijniy Novgorod) nohiyalarida tarqala boshladi. 1922-yildan boshlab voleybol Vseobuch (Umumiy harbiy tayyorgarlik) tarkibiga kiritildi. Moskvada voleybol bilan muntazam shug'ullanishga san'at va teatr vakillari kirishdilar. 1923-yilda tashkil etilgan „Dinamo“ jamiyati sportning boshqa turlari bilan bir qatorda voleybolni ham targ'ib qila boshladi. Xuddi shu yillarda voleybol Uzoq SHarqda – Xabarovsk va Vladivostokda paydo bo'ldi. 1925-yildan esa Ukrainada ham rivojlana boshladi. SSJda jismoniy tarbiya va sportning keyingi taraqqiyoti uchun RKP/b/ MK 1925-yil 13-iyul qarori katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda ommani tarbiyalashning samarali usullaridan biri bo'lgan jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish zarurligi uqtirib o'tildi. Markaziy qo'mita qarori voleybolning tobora taraqqiy etib borishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Sovet voleybolchilari o'z oldilariga mamlakatda voleybolni ommalashtirish, tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, texnika va taktikani mukammallashtirish, o'yinchilarni har tomonlama jismoniy tayyorgarligini yuksaltirish kabi qator vazifalarni qo'yidilar. Voleybol hamma erda tarqala boshladi. SHu bilan bog'liq ravishda musobaqalarning yagona qoidalarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. 1925-yilning yanvarida Moskva jismoniy tarbiya kengashi voleybol bo'yicha musobaqalarning birinchi rasmiy qoidalarini tuzib tasdiqladi. To'rtining balandligi – ayollar uchun 2 m 20 sm va erkaklar uchun – 2 m 40 sm qilib belgilandi. Ayollar jamoalarida o'yin 15 x 7,5 o'lchamli maydonchada o'tkaziladigan bo'ldi. 1926-yilda Moskvada yangi qoidalar asosida birinchi musobaqalar o'tkazildi. 1927-yildan voleybol bo'yicha Moskva birinchiligi muntazam ravishda o'tkazila boshladi. „Sobiq Ittifoqida“ birinchi bosmadan chiqarilgan voleybol bo'yicha maxsus adabiyot 1926-yilda 9 paydo bo'ldi va u „Voleybol va mushtlar jangi“ deb nom olgan edi. Uning mualliflari S.voleybolSisoev va A. A. Marku...edi. 1926-yilda yana bir qator muhim voqealar bo'lib o'tdi, ya'ni voleybol Butunittifoq jismoniy tarbiya kengashining o'yinlar sho'basi voleybol bo'yichamusobaqalarning yagona qoidalarini tasdiqladi. Xarkovda moskvalik va xarkovlik voleybolchilarning shaharlararo uchrashuvi o'tkazildi. SHu yillarda voleybol faqatgina Moskvada emas, balki Ukrainada, shimoliy Kavkazda, Kavkazortida, Uzoq SHarq va O'rta Volga o'lkalarida ham keng tarqaldi. „SSJI“ voleybolda taalluqli muhim voqealardan biri 1928-yilning avgustida birinchi Butunittifoq spartakiadasi vaqtida o'tkazilgan Ittifoq birinchiligi bo'ldi. Unga Moskva, USSJ, SHimoliy Kavkaz, Kavkazorti Federatsiyasi va Uzoq SHarK o'lkasining

erkaklar va ayollari qatnashadilar. Musobaqalar chiqib ketish tartibida o'tkazildi. Moskva ayollar jamoasi va Ukrainaning erkaklar jamoasi g'olib chiqdilar. Birinchi Butunittifoq spartakidasida voleybolchilarning uchrashuvlari musobaqa qoidalarining alohida bandlarini yagona tartibda izohlash uchun imkon berdi. SHuni aytib o'tish kerakki, bu yerda ayollar jamoalari birinchi bor normal o'lchovli maydonchalarda (18/9 m) o'ynaydilar. Sovet Ittifoqining turli mintaqalarida voleybol taraqqiyotida xilma-xil yo'nalishlar yuzaga kela boshladi. Ukrainaliklar jamoali o'yin taktikasini va fidokorona himoyani namoyish etdilar, moskvaliklar kuchli hujumchi ekanliklari bilan ko'zga tashlandilar, Uzoq SHarqliklar esa past uzatilgan to'p bilan hujum qilishdek ajoyib yangilik olib keldilar. SHuni ta'kidlash kerakki, terma jamoalarning Butunittifoq spartakiadasiga tayyorlanishi voleybolning joylarda ommaviy ravishda rivojlanishiga turtki bo'ldi. Butunittifoq spartakiadasi arafasida o'tkazilgan Ukraina birinchiligida jumhuriyatning viloyat shaharlaridan 21 jamoa ishtirok etdi. Kavkazortining eng kuchli jamoasini aniqlash uchun Boku, Tiflis va Erevan shaharlarining jamoalararo uchrashuvlari o'tkazildi. Xuddi o'sha 1928-yilda Moskvada doimiy hakamlar uyushmasi tashkil etildi. Voleybol taraqqiyotida maktab o'quvchilarining spartakiadasi ham (1929) katta ahamiyatga ega edi. Bu spartakia qatnashchilaridan ko'pchiligi keyinchalik voleybol ustalari bo'lib etishdilar.

Shaharlararo musobaqalar soni anchagina ortdi, bu esa turli texnik usullarning paydo bo'lishiga, voleybol taktikasining rivojlanishiga, o'yinchilar jismoniy tayyorgarligining o'sishiga olib keldi. SHu davrda o'yinchilar maydonga to'pni kuch bilan kiritish, aldov zarbalari usullarini keng qo'llay boshladilar, uzatish texnikasiga e'tibor berdilar, himoyaning ahamiyati ortib o'yin tezkor, shiddatli bo'la boshladi, natijada o'yinchilarning harakatchanligiga talab oshdi.

1931-yilda BLKEI tashabbusi biln mamlakatimizga jismoniy tarbiyaning asosi bo'lgan „Mehnat va mudofaaga tayyor“ Butunittifoq kompleksi ta'sir etildi. Bu tadbir voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini yuksaltirishgagina emas, balki yoshlarni voleybol mashg'ulotlariga jalb etishga ham imkoniyat yaratdi. Voleybolning ommaviy rivojlanishi va keng targ'ib qilinishida ko'pgina madaniyat va istirohat bog'larining maydonchalarida o'tkazilgan musobaqalar katta ahamiyatga ega edi. Moskvadagi markaziy madaniyat va istirohat bog'ining 20 ta maydonchasi atrofida tomoshabinlar yig'iladilar. O'tkazilayotgan o'yinlar faqat moskvaliklar uchun emas, balki chet ellik mehmonlar uchun ham yaxshigina maktab edi. SHuning uchun 30-yillarda Germaniyada „Voleybol – rus xalq o'yini“ deb nomlangan voleybol bo'yicha musobaqa qoidalari kitobcha holida chop etildi.

Turli shaharlarning eng kuchli jamoalari orasida birinchiliklar o'tkazib turildi. 1931-yilda Xarkovda Moskva, Dnepropetrovsk va maydon egalarining erkak va ayollar jamoalari uchrashdilar. Moskvalik ayollar g'olib chiqdilar, har uchchala

erkaklar jamoasi bittadan magʻlubiyat va gʻalabaga ega boʻldilar. Bu uchrashuvlar „tez surʻatli“ oʻyinning ahamiyati ancha ortganligini taʼkidladi.

1932-yildan voleybol barcha katta spartakiadalarning dasturiga teng huquqli sport turi sifatida kiritildi. SHu sababdan voleybol boʻyicha butunittifoq musobaqalarining har yili muntazam oʻtkazib turilishi haqidagi masala koʻtarildi.

1932-yilning bahorida Butunittifoq jismoniy tarbiya kengashi qoshida voleybol seksiyasi tashkil topdi va uning tarkibiga A.Potashnik (rais), voleybolOskolkov, M.Vilgrat, YU.Bagon, voleybolKryuk va boshqalar kiritildilar.

1932-yildan avval „Voleybolchilarning Butunittifoq bayrami“ deb atalgan „Sovet Ittifoqi“ birinchiliklari muntazam oʻtkazila boshladi. Voleybol boʻyicha SSJI birinchiligi ilk bora Dnepropetrovsk shahrida 1983-yilning 4-6-aprelida boʻlib oʻtdi. Musobaqalarda ayollar jamoasi (Moskva, Dnepropetrovsk, Xarkov, Boku, Minsk) va 5 ta erkaklar jamoasi (Moskva, Dnepropetrovsk, Xarkov, Tiflis, Minsk) ishtirok etdi. Aylanma tartibda oʻtkazilgan oʻyinlar koʻp sonli tomoshabinlarni oʻziga jalb qildi. Qiziqarlisi birinchilik tugagach, moskvalik aralash jamoalarning koʻrgazmali oʻyinlari oʻtkazildi.

Xulosa: Oʻyin uch yoki besh partiyadan iborat boʻlib, har bir partiya 15 ochkogacha davom etadi. Agar ochkolar 15:15 boʻlsa, oʻyin 17 ochkogacha davom etadi. Soʻnggi partiya (3-va 5-)da oʻyin hisobi „taym-brek“ asosida olib boriladi. Yaʼni oʻyindagi har bir harakat natijasiga qarab toʻpni oʻyinga kiritish huquqi qaysi jamoada boʻlishidan qatʼiy nazar jamoaga magʻlubiyat yoki gʻalaba keltirishi mumkin. Hal qiluvchi partiyada oʻyin 2 ochko farq qilguncha davom etadi. Oʻyin jarayonida texnik malakalarni bajarishdagi xatolar:

- Toʻpni oʻyinga kiritishda: agar irgʻitilmasdan toʻgʻridan toʻgʻri „qoʻldan“ urilsa;
- Toʻpni oʻyinga kiritishda belgilangan chegara chiziqlarini bosish, toʻp irgʻitilsayu, lekin urilmasdan tanaga tegsa va hokazo;
- Toʻpni uzatishda: toʻp kaftga tegsa – ilib otilsa, ikki qoʻl kema-ket tegsa yoki ham tanaga, ham qoʻlga tegsa va hokazo;
- Zarba berishda: tana va tana qismlarini toʻrga tegib ketishi (9 metrli belgilangan chegara oraligʻida), qoʻnish vaqtida oyoq oʻrta chiziqdan butunlay oʻtib ketsa, raqib tomonidagi toʻpga tegilsa va hokazo.

Himoyada:

- Toʻpni qabul qilishda: agar toʻpni uzatishdagi xatolar boʻlsa;
- Toʻsiq qoʻyishda: zarba berishdagi xatolar boʻlsa, ochko olishdan yoki toʻpni oʻyinga kiritish huquqidan mahrum qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shermamatovich M. M. The Role of Physical Education in Our Life //International Journal of Formal Education. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 63-65.
2. Muratov M. The northern Black Sea: the case of the Bosporan kingdom. – 2015.

3. Хусаинов Ш. Я. и др. ПРЕИМУЩЕСТВА КОМАНДНЫХ ВИДОВ СПОРТА ДЛЯ АДАПТАЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 6. – №. 1. – С. 47-55.
4. Shermamatovich M. M., Yalgashevich X. S., Muzaffar o'g'li S. A. SPORT KURASHIDA SARALASH: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 6. – №. 1. – С. 69-75.
5. Yalgashevich K. S., Shermamatovich M. M., Zayniddinovich N. I. The role of physical culture in the life of students //Int J Sci Technol Res. – 2021. – Т. 10. – №. 03. – С. 1-4.
6. Shermamatovich M. M. OZBEKISTONDA MILLIY KURASHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 39. – №. 5. – С. 36-41.
7. Муратов М. Ш. ИЗУЧЕНИЕ СТЕПЕНИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 38. – №. 5. – С. 22-27.
8. Муратов М. Ш., ўғли Шермаатов А. М. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 186-192.
9. Shermatovich M. M. JISMONIY TARBIYA VA SPORT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING JIHATLARI //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 48. – №. 1. – С. 130-132.
10. Shermamatovich M. M. DEVELOPMENT OF WRESTLING SPORTS IN UZBEKISTAN AND AWAKENING OF THE CONCEPT OF PATRIOTISM IN STUDENTS //JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 36-39.
11. Shermamatovich M. M. THE SPORT OF WRESTLING AND THE LAWS OF THE FIELD OF WRESTLING //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 84-88.
12. Shermamatovich M. M. et al. Proposals On Innovative Solutions Of Organizing The Architecture Of Multifunctional Sports Facilities //Journal of Advanced Zoology. – 2024. – Т. 45.
13. Shermamatovich M. M., Aybxonovich T. M. O'QUVCHILARNING FUTBOL BO'YICHA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK TOMONLARINI

- O'RGANISH MUAMMOLARI //Journal of new century innovations. – 2024. – T. 44. – №. 1. – C. 84-87.
- 14.Shermamatovich M. M. et al. Endurance Formation in General Physical Training Students //International Journal on Integrated Education. – 2021. – T. 4. – №. 3. – C. 356-359.
- 15.Shermamatovich M. M., Latif T. DEVELOPMENT OF SPORTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 3. – C. 374-377.
- 16.Shermamatovich M. M., Norkulovich S. K., Tursunovna H. U. PLACE AND ROLE OF PSYCHOLOGICAL AND VOLITIONAL TRAININGIN THE TRAINING PROCESS OF STUDENTS-BOXERS //World Bulletin of Management and Law. – 2022. – T. 8. – C. 141-144.
- 17.Shermamatovich M. M. Psychological Description Of Sport And Psychological Development Of Sportsmen //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 17. – C. 7-9.
- 18.Yalgashevich X. S., Shermamatovich M. M. Enhancing Athletes' Regained Performance Through Rational Nutrition //International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. – 2020. – №. 1. – C. 1-6.
- 19.Shermamatovich M., Yalgashevich K., Narkulovich S. The development of physical preparedness of student young people //Psychology and Education Journal. – 2021. – T. 58. – №. 1. – C. 2699-2704.
- 20.Shermamatovich, M. M., Tursunovna, H. U., Zayniddinovich, N. I., Boltayevich, A. S., & Yalgashevich, K. S. (2021). Physical education of student youth in modern conditions. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(2), 1589-1593.